



O'ZBEKISTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Boltayeva Shaxnoz Bebudovna

BuxDu katta o`qituvchisi

Abduhakimov Nurbekjon Nuriddin o`g`li

BuxDu, "Agrobiznes va investitsion faoliyat" ta`lim yo`nalishi talabasi

Xo`jaqulov Ramozon Saloxiddinovich

BuxDu, "Agrobiznes va investitsion faoliyat" ta`lim yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada agroturizm tarixi, asoschilaragi agroturizmning afzalliklari iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy maqolalari va adabiyotlaridan foydalanilgan holda, ya`ni adabiyotlar sharxi usulidan foydalanilgan holda yoritilgan.. Mamlakat iqtisodiyotida agroturizmning ahamiyati hamda uni rivojlantirish yo'llari o'rGANildi.

Kalit so'zi: Agroturizm, fermer xo'jaligi, turizm, rekreatsiya resurslari, turistik qishloq, ekoturizm.

Ko'pgina tadqiqotlarda rivojlangan mamlakatlarning agroturistik holatini o'rGANish, uning rivojlanishini talab hamda taklif tomondan tahlil qilish, istiqbolli yo'naliшlarini taklif qilish ommalashmoqda. Serdaromad soha sifatida turizmni qishloq xo'jaligi ishlariga tadbiq qilish bugungi kunda qishloqlarda yangi ish o'rINlarini yaratish, diversifikatsiya orqali past rentabelli xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ijtimoiy farovon turmush tarzini yanada yaxshilash bilan bir qatorda ekologik madaniyatni rivojlantirish hamda tarixiy-madaniy urf-odatlarni saqlab qolish imkoniyatini bermoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda, turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirishga olib keladigan o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, shuningdek, 2017-2021-yillarda Konsepsiyanı amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar Dasturini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi turizm sohasining tezkor rivojlanishi, uning iqtisodiyotdagi ulushining ortishi, turistik xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi.

Dunyo turizm industriyasida "agroturizm" so'zining aniq izohi, uning "qishloq turizmi", "fermer xo'jaligi" turizmidan farqi bo'yicha ko'pgina bahsli izlanishlar bo'lgan va bugungi kunda ham u hamma uchun yagona ta'rifga ega emasligini bir qator buyuk britaniyalik olimlardan Flanigan, Xanter, Blekstoklar o'z ishlarida alohida e'tibor qaratganlar. Barbieri va Mshenga agroturizmni fermer xo'jaligiga asoslangan turizm, qishloq turizmiga ma'nodosh sifatida talqin qilganlarida, Makgixi va Kimlar bu turizm turlarining ayrim o'ziga xos belgilari bilan bir-biridan farq qilishini ta'kidlashadi.



Agroturizmning ildizlari XIX asr oxiri - XX asr boshlarida, Yevropadagi fermer xo‘jaliklari va qishloq joylari shahar hayotidan dam olishga intilayotgan mehmonlarni jalgan qila boshlagan. Italiyada agroturizm XIX asrning ikkinchi yarmida mamlakatning qishloq xo‘jaligi merosini saqlab qolish usuli sifatida, yozning issiq kunlarida tog‘li hududlardagi fermer xo‘jaliklariga borishlari natijasida shakllangan. Ammo agroturizm rasman 1985-yilda Italiya parlamenti va senati tomonidan agroturizm bo‘yicha milliy huquqiy asos qabul qilinganida tan olingan.

Agroturizm dehqonchilik, mayda oziq-ovqat ishlab chiqarish yoki hayvonlar atrofida chorvachilik tashkil etilgan sayohatni anglatadi. Agroturizm - bu shahar aholisini qishloq joylariga olib kelishdam olish va xarajat qildirish g‘oyasidir.

Agroturizm kontseptsiyasi ekoturizmning to‘g‘ridan-to‘g‘ri kengayishi bo‘lib, u tashrif buyuruvchilarni qishloq xo‘jaligi hayoti bilan tanishtirib tabiat qo‘ynida dam olish imkonini yaratadi. Insonlarning tabiatga sayohati orqali qishloq aholisi jamoalari barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Agroturizm, shuningdek, barqaror turistik rivojlanishning yengil shakli va ko‘p qirrali turi sifatida ham tanilgan bo‘lib, qaysiki bu tashrif buyuruvchilarga qishloq xo‘jaligi hududlari, qishloq xo‘jaligi kasblari, mahalliy mahsulotlar, an‘anaviy oshxonalar va kundalik xalq hayoti, shuningdek, madaniy elementlar va hududning o‘ziga xos xususiyatlari, atrof-muhit an‘analari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Shuningdek, agroturizm sohasi qishloq aholisining noqishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanishiga ham imkon yaratadi.

Agroturizm ochiq havoda sayr qilish, ta’lim tajribasi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish, turar joy va o‘yin-kulgi imkoniyatlarini beradigan turizm turidir. Bu imkoniyatlar ham sayyoohlар, ham fermerlar uchun juda muhimdir. Bu imkoniyatlarga sayyoohlар tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi. Shunisi ahamiyatliki, agroturizm qishloq hududlarida rivojlanishi matijasida qishloq hududlarida transport, infratuzilma, sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalari, savdo-sotiq tarmoqlari ham rivojlanib boradi.

Agroturizm Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Gretsya va Fransiyada yaxshi rivojlangan. Bu mamlakatlarga borgan sayyoohlар muayyan vaqt davomida qishloq joylarda yashab, mahalliy xalq madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi bilan tanishishadi, an‘anaviy qishloq xo‘jalik ishlarida ishtirok etishadi. Masalan, Buyuk Britaniyada fermerlarning 60 foizi turizm sohasidan tizimli ravishda daromad olishni yo‘lga qo‘yishgan, o‘rtacha yillik daromad 10-50 ming AQSh dollarini tashkil qiladi.

AGROTURIZMNING AFZALLIKLARI:

Agroturizm o‘zi faoliyat yuritayotgan hudud uchun juda ko‘p afzalliklarga ega. Bu imtiyozlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- agroturizm mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlaydi va mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo‘shadi;
- mahalliy hududning rivojlanishini ta‘minlaydi;
- agroturizm qishloq xo‘jaligida bandlikni ta‘minlaydi;
- mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va

qishloq hayotini saqlashga yordam beradi; • tabiiy, tarixiy va madaniy resurslardan foydalaniladi; • fermer xo‘jaligida qo‘srimcha daromad olish uchun mahsulotlar va marketingni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari o‘rnataladi; • oila a’zolarini ish bilan ta‘minlash imkonini yaratiladi;

• fermer xo‘jaligida dam olish va ko‘ngilochar tadbirlarni qo‘sishish orqali mavjud fermer xo‘jaliklari savdo nuqtalariga mijozlar oqimini oshiriladi; • qishloq-madaniy turizm tajribasi mehmonlarga fermada yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish imkonini beradi; • shahar va qishloq aholisi o‘rtasidagi madaniy o‘zgarishlar, shu jumladan ijtimoiy axloqiy qadriyatlar. • fermerlar shahar aholisi bilan aloqalar tufayli turmush darajasini oshirishlari mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan imtiyozlar mahalliy aholiga ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik sharoitlarni beradi. Shunday qilib, bu afzalliklar agroturizmning ahamiyati ochib beradi.

Turizm sohasining muhim yo`nalishlaridan bir bo`lgan agroturizm ekologik toza tovarlar taqdim etish va xizmatlar ko`rsatishga asoslangan turizm turi bo`lib, bu xalqimizning turmush sharoiining yaxshilanishiga hamda davlat byudjetining ham oshishiga sabab bo`ladi. Bugungi kunda yurtimizda ushbu sohada amaloga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar hamda yutuqlarimiz ham talaygina. Bunga misol sifatida olis qishloq hududlarida tashkil etilayotgan agroturizm ob’ektlari, mehmon uylari va boshqalarni misol keltirish mumkin. Shu bilan birga agroparklarning, agrokasterlarning qurilishi natijasida qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish choralarini ko`riladi, qishloq aholisini ish bilan ta‘minlaydi, qishloq aholisining xorijga migratsiyasini kamaytiradi, turistik mavsum davomiyligini uzaytiradi, qiymati bo`yicha raqobatbardosh dam olish turi hisoblanadi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, turli qishloq xo‘jalik mahsulotlari hamda o‘ziga xos qishloq an‘analari, diqqatga sazovor joylar, turistik xizmatlarni ko‘rsatish salohiyatiga ega qishloqlarning mavjudligi agroturizmni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, agroturizm qishloqda yashovchi aholiga daromad olish hamda qishloq hududini rivojlantirish imkonini beradi. Agroturizmda turistlar juda ko‘p turli xil ob’ektlarga tashrif buyurib ushbu hududda yashovchi odamlarga qo‘srimcha daromad keltirish, hududni rivojlantirishga va mamlakat iqtisodiyotiga yordam beradi. Agar O‘zbekiston agroturizmni rivojlantirmoqchi bo‘lsa, uni o‘qitishi kerak. Qishloq joylarda yashovchi aholiga turizm haqida ma’lumot berib, ularning xabardorligini oshirish kerak. Agroturizm qishloq joylarni boyitadi, shuningdek, qishloq joylaridagi rekreatsiya resurslarini yo‘q bo‘lib ketishdan himoya qiladi. Shu nuqtai nazardan, mamlakat tabiiy madaniy, tarixiy, haqiqiy va ekzotik joylarga boy hisoblanadi. Bu joylar agroturizm uchun juda mos keladi. Agar bu joylar boshqa odamlarga ko‘rsatilishi kerak bo‘lsa, reklama qilinishi kerak va ommaviy axborot vositalari diqqat markazida bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jontemirova I.I.Q. O'ZBEKISTONDA AGROTURIZMNING RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. SamTSAU Conference 1. – C.603-607
2. Hakimovna, Akhmedova Feruza, and Boltayeva Shakhnoza Bebulovna. "Wide dissemination of information technologies in the sphere of domestic and international tourism." Economics 1 (48) (2021): 32-34.I
3. Boltayeva, Sh B. "DEVELOPMENT OF AGRICULTURE ROLE OF MARKETING." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 428-431.NFORMATION TECHNOLOGIES IN THE SPHERE OF DOMESTIC AND INTERNATIONAL TOURISM" Econom22ics, no. 1 (48), 20
4. Болтаева, Шахноз. "WASTE PROBLEM, SECOND LIFE OF WA DEVELOPMENT OF AGRICULTURE ROLE OF MARKETING." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 45.45 (2024).21,
5. Болтаева, Шахноз. "Modern Directions of Small Business and Entrepreneurship Development in Uzbekistan." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 20.20 (2022).p
6. Болтаева, Шахноз. "The role of Agrokultural marketing in the development of Uzbekisnan." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).p. 3
7. Болтаева Ш. Инновационные способы финансирования в агробизнесе //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.2-
8. Туробова, Хулкар. "Особенности развития агробизнеса." Экономика и инновационные технологии 3 (2021): 126-134.
9. Рустамовна, Туробова Хулкар. "АГРОБИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ."
- 10.Рустамовна, Туробова Хулкар. "АГРОБИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ."
- 11.Туробова, Хулкар. "Агротуризмни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари." Экономика и инновационные технологии 6 (2019): 166-172.